

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## LUQMON BO‘RIXONNING “IMOM MOTURIDIY” ROMANIDA DAVR VA SHAXS RUHIYATI TALQINIDA

**Bobojanov Alisher**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Luqmon Bo‘rixon “Imom Moturidiy” romanidagi qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni monolog va diloglar yordamida mohirona ochib bergan. Shuningdek, peyzaj tasviri qahramonlar ruhiyatini ochish bilan birga makon va zamoni ham belgilab beradi. Yozuvchi davr ruhiga hamohang g‘oyalarni olg‘a surgani uchun ham ushbu romani zamonaviy asarlar safidan o‘rin oldi, davr va inson, shaxs va jamiyat taqdiri haqida o‘ylashga imkon berganligini alohida ta’kidlash joiz.

**Kalit so‘zlar:** Roman, monolog, diolog, syujet, obraz, peyzaj, tabiat tasviri, badiiy niyat, badiiylik.

Asardagi monologlar qahramon ruhiy dunyosini taftish qilish, xarakterini ochishdan tashqari yozuvchi bizga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni ro‘y-rost, jonli va hisiy bir shaklda ifodalashga yordam beradi. Romandagi Xolid Xalaj obrazi badiiy pishiq obrazlardan biridir. Xolid Xalaj asar boshida qo‘liga kitob ushlamagn o‘qishni ham bilmaydigan bir sarkarda sifatida ko‘rsak asar yakunida uning o‘zining ilmi, taqvosi bilan butun Movarounnahrda shuhrat qozonadigan Abu Yusuf Muhammad Xolid Xalajiy sifatida shuhrat qozonishiga amin bo‘lamiz.

Muallif qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni monolog va diloglar yordamida mohirona ochib bergan. “Nega biz turklar ot ustida tug‘ilib, ot ustida o‘lamiz? Yozug‘imizda nechun faqat jangu jadal? Nega bir parcha yaylov, bir suruv chorva, ot va yarog‘ biz uchun hayot-mamot masalasi?! Umrimizga, qadr-qimmatimizga emas, ana shu arzimas matohtar uchun qayg‘uramiz. Ana, umrida o‘q-yoy ko‘rmagan, qilich taqmagan odamlar ham tuppa-tuzuk tirikchilik qilib yuribdi-ku?! Biri savdogar, biri binokor, biri taqinchoqlar yasaydi, biri kiyim-kechak tikadi. Nega biz yil-o‘n ikki oy qon va qurum kechib yuramiz? Ammo turmushimiz ularniki yanglig‘ to‘kin emas. Bugun topganimiz ertaga yetmaydi. Nechun bu ayanchli hol?” [1;145]. Muallif Xolid Xalaj obrazi orqali millatning o‘tmishdagi asl qiyofasini anglatmoqqa kirishadi. Ota-bobolarimizning bir parcha yer uchun butun umrini, jonini fido qilgani biz uchun vatan tushunchasining har nedan aziz qadriyat ekanini anglatadi. Ammo qahramon qalbini o‘rtayotgan narsa umri davomida qurol-yarog‘ neligini bilmagan millatlar bor, ular o‘z umrini kasb-kor o‘rganishga, savdo-sotiq bilan shug‘ullanishga sarflayotgan bir paytda bizning millat hali ham qurol ko‘tarib arzimagan matohtar uchun kurashib yuribdi. O‘n gulidan bir guli ochilmagan 15 yoshni endi qarshilagan o‘sprinlarning jang maydonida jon berishini ko‘rganda tomirlaridan qon emas qalbini yemirib, afsus-nadomatga to‘la savollar oqardi. Tarixning keng ko‘lamli va haqqoniy

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

manzaralari faqat bosh qahramon qiyofasi bilangina emas, balki xalq vakillari obrazi orqali ham aks ettiriladi. Shu jihatdan qaraganimizda, Xolid Xalaj kabi obrazlar diqqatga sazovordir. L.Bo‘rixonning ushbu romanini mutolaa qilganda “shaxsning davrda takomil topishi”(A.Tolstoy) ko‘zga tashlanadi. Lekin shunday bo‘lsa-da, roman qahramonlarining o‘z davri bilan uzviy, uni teran realizm vositasida tasvirlab beradigan, ayni paytda boshqa zamonlarni ham nurlantrib ko‘rsata oladigan. Davr ruhiga hamohang g‘oyalarni olg‘a surgani uchun ham “Imom Moturidiy” romani zamonaviy asarlar safidan o‘rin oldi, davr va inson, shaxs va jamiyat taqdiri haqida o‘ylashga imkon berdi, sero, shu boisdan ham biz uchun juda qadrlidir.

Ushbu romanda insonlarning tillidan ko‘p ichki olami ko‘proq narsa anglatadi. Bundan tashqari muallif tasvirida voqea ham his-tuyg‘ulat tafsiloti ham o‘z badiiy qimmatini yo‘qotmaydi. Ular bir-birini boyituvchi, bir-birining sir-asrorini ochuvchi yaxlit kponent sifatida ko‘zga tashlanadi. Muallif o‘tmishning haqqoniy manzarasini yaratish, tarixiy voqealarning mohiyatini ochish niyatida o‘sha davrning tilini o‘rgangan va baholi qudrat davr kaloritini chizishga urungan.

Peyzaj tasviri qahramonlar ruhiyatini ochish bilan birga makon va zamoni ham belgilab beradi. Demak, tabiat tasviri berilgan joy makon bo‘lsa, o‘sha tabiat tasviridan kelib chiqib biz zamoni belgilab olamiz. Bu haqda adabiyotshunos I.Sultonov quyidagi fikrlarni qayd etadi: Tabiat tasviri sujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi. Badiiy asarda tabiat hodisalari va ko‘rinishlari sujetning rivojini tezlatuvchi yoki sekinlatuvchi omil sifatida ham tasvirlanishi mumkin. Ammo tabiat manzaralaridan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun foydalanish adabiy asarlarda eng ko‘p uchraydigan hodisadir. Bu holda tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi dramatismni chuqurlashtiradi yoki ularning ruhlariga kuch baxsh etadi. Demak, qahramonlarning bundan keyingi harakatlarini asoslab, sujet rivojiga ta’sir ko‘rsatadi”. Inson ruhiyatining o‘ziga xos talablarini talqin qilishda: “Qahramonlar ichki dunyosining o‘zgarishida tashqi ta’sirning, ya’ni muhit va sharoitning ketma-ket bergan ayovsiz zarbalari asosiy o‘rinni egallaydi” - deb yozadi M.Abdurahmonova. Luqmon Bo‘rixon ham Moturidiy yashagan davrning ijtimoiy qiyofasini gavdalantirish uchun peyzajga katta o‘rin bergan. Asardagi quyidagi tasvirning o‘ziyoq yozuvchini badiiy mahoratining kuchini namoyon qilmoqda: “Quyosh ufq etagiga horg‘in bosh qo‘ydi. Chor-atrof kulrang tusga kira boshladi. Qum shahri bo‘zag‘asidagi mashhur karvonsaroy bugun odatdagidan ham gavjum edi. Rang-barang sallalar, kulohlar, chalmalar, toqilar ichkari-yu tashqarida to‘zg‘ib yurardi. Kunbotardagi keng yalanglikdan, tuyalar, ot-ulovlar qo‘nim topgan tomondan jonivorlarning bo‘g‘iq

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

hirqirashi, bo‘kirigi eshitiladi, havoga yengil chang-to‘zon, g‘ubor ko‘tariladi”. Mamlakatda yuz berayotgan g‘alayonlar, to‘s-to‘polonlar quyoshning horg‘inligiga sabab bo‘lsa, har xil aqida o‘rtasidagi kurash “Rang-barang sallalar, kulohlar, chalmalar, toqilar ichkariyu tashqarida to‘zg‘ib yurardi” tasviri orqali berilmoqda. Aynan shu kurashlar sabab “havoga yengil chang-to‘zon, g‘ubor ko‘tariladi”. Ya’ni xalq orasida ig‘vo, bo‘qton tarqatib, islom dinining qudratiga chang solishga urinishlar avjiga chiqqan. Muallif bu kabi tasvirlarni juda o‘rinli va maromida qo‘llaydiki, kitobxon huddi voqeani jonli kuzatayotgandek his qiladi o‘zini. Samarqand hokimi bilan Idris Shomiy o‘rtasidagi suhbatda ham peyzaj tasviriga guvoh bo‘lamiz. Ushbu parcha orqali muallif qahramonlarning ruhiy dunyosiga nazar tashlashga ishora qilmoqda: *“Ufq tomon oqqan oftob shundoqqina deraza ortidan go‘yo mo‘ralab turardi. Og‘ir darpardalar uning zarrin ziyosini to‘shiga, parchalashga urinadi. Singan, sochilgan yog‘dular esa serhasham peshtoqning har joy-har joyida balqib xosxonaga oqlik, soflik baxsh etardi”* [1;26]. Idris Shomiy Moturudiyi hokimga qanchalik razil va xudbin kishi sifatida tasvirlamasin, asl haqiqat quyosh yanglig baribir yuzaga chiqadi. Chunki quyosh nurlari to‘shiga hech kimning qudrati yetmaydi. Moturidiy siyratidagi nur, ilmi ziyo nafaqat saroy balki butun mamlakat bo‘ylab kezib yuribdi.

Badiiy adabiyotda psixologik-ruhiy tasvirning o‘rni benihoya kattadir. Yozma adabiyotda psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida adabiy qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o‘ylari, kechinmalari, kayfiyatlari hamda intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san’ati yotadi. Uning mohiyatini esa, qahramon xarakteriga xos xislatlarning, ruhiy olamining qay holda, qay vaziyatda ochilishi belgilaydi. Yozma adabiyotda psixologik tasvir anchagina chuqur va ko‘p qirralidir, ya’ni unda, nafaqat ruhiy-psixologik tasvir, balki ruhiy tahlil hukmronlik qilish darajasiga yetadi. Ruhiy tahlil kuchli bo‘lgan adabiy-badiiy asarlarda har bir detal, xatti-harakat, epizod, har bir voqea u yoki bu qahramonning ichki-ruhiy olamini ochishga bo‘ysundiriladi.

Har qanday adabiy-badiiy asar bilan o‘quvchi tanishar ekan, uning oldida eng birinchi va asosiy vazifa-badiiy asarni tushunish masalasi turadi. Asarni tushunish uchun esa, o‘quvchi uni o‘qish asnosida muayyan qoidalar, qonuniyatlar asosida ish ko‘rishi zarur bo‘ladi. Bu qonuniyatlar asarga tegishli bo‘lgan va u bilan bog‘liq bo‘lgan, tushunish masalasini osonlashtiruvchi bir qator omillardir. Bu omillardan biri, badiiy asarning ruhiyatiga kira olish, uning ruhiy olamini, qahramonlarning xarakterlari, ichki kechinmalari, o‘y-xayollari, ruhiy dunyosini anglash, demakdir. Badiiy asardagi har bir xarakter, xatti-harakatlar, detallar, voqealar rivoji, epizodlar

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

orqali asar ruhiyati anglashiladi. Bu, nisbiy tushuncha. Chunki, badiiy asar ruhiyatini faqat yuqoridagi vositalar orqaligina tushunish mumkin, degan hukm noto‘g‘ri. Biroq, bu narsalar asarni to‘laroq tushunishda vosita rolini o‘ynaydi, xolos. Asardagi *“Qor gupillab yog‘ib turardi. Havo allanechuk iliq. Shoxlariga qalin qor qo‘ngan dov-daraxtlar ham go‘yo motamsaro egilib-bukilib tek qotgan. To‘p-to‘p qarg‘alarning faryod urgan kabi betinim qag‘illashi ezilgan yuraklarni battar ezardi”* [1;277] tasviri Abu mansur Moturidiyning foniy dunyoni tark etishi hatto ona tabiatni ham motam tutishga majbur qilgani, insoniyat boshiga tushgan og‘ir musibatlardan biri ekanligini yorqin tasviridir. To‘p-to‘p qarg‘alarning faryod urgan kabi betinim qag‘illashi Moturudiydek buyuk insonning o‘limi hatto dushmanlarining ham qalbiga g‘am va alam solganiga urg‘u bermoqda. Yozuvchi bu kabi manzaralar orqali qahramon va davr ruhiyatini hamohanglikda ochib berishga erishadi.

“Insoning haqiqiy qiyofasini ruhiy iztiroblar belgilaydi. Iztiroblar kitobxon qalbiga ta’sir o‘tkazadi. Tabiiyki, bu ta’sirlar natijasida qalb ezgulashadi. Ezgulikka da’vat badiiy adabiyotning asosini tashkil etadi. Shu tufayli inson ko‘ngli adabiyotga hamohangdir” [2]. “Imom Moturudiy” romanida ayol qahramonlar alohida o‘rin egallaydi. Adib ayol dardi, uning kechinmalarini nozik fahmlaydi. Rang-tasvirdagi quyuqlik personajningina emas, voqelikni ham chuqur anglash imkonini beradi. Mastonbibi obrazi va uning o‘y-fikrlari, iztiroblari tasviridan erining sevgisiga erisha olmagan, hatto boshqa bir ayolning bor yo‘qligini aniq bilmaydigan shunday bo‘lsa ham umrini erini rashq qilib o‘tkazgan sodda, to‘pori ayolning qiyofasini mohirlik bilan aks ettiradi: *“Evohki, jami orzularim armong‘a aylandi, – xayolan chinqirdi xotin, – Mastonadan motamsarog‘a do‘ndim, umrim shul paxsa devorlar orasida dimiqib o‘tdi”* [1;66]. Ayol qalbidagi po‘rtanani bundan yorqinroq aks ettirib bo‘lmaydi. Ayol uchun haqiqiy baxt oiladagi hotirjamlik va turmush o‘rtog‘ining e’tibori. Motrudiy buyuk alloma bo‘lishi mumkin, ammo bir paytning o‘zida rafiqasiga nisbatan sovuq va e’tiborsiz er. Ular mana salkam yigirma yildan beri eru xotin. Ammo xuddi begonalar kabi xonadonda na quvnoq qahqaha, na zavq-shavq bor. Yigirma yil avval o‘n besh yashar Mastonbibi ne bir orzular og‘ushida edi.

*“Nahotki, Abu Mansur ham o‘shal yanglig‘ xayoliy manzillar oshig‘i bo‘lsa! Nahotki, jabru jafolarga, beadoq talato‘plarga limmo-lim dunyoi qo‘tirni tezroq tark etmoq, tinch-tiniq, toza-pokiza, erk-hurlik olamiga etmoq orzusida bo‘lsa?! Ayol rashk qilib yurgan, biroq hayotda hech qachon uchramagan o‘sha sohibjamol, nurli siymo yo chindan ham ko‘kdamikin? Ko‘kdan inib, Muhammadni o‘ziga rom etib, istasang, topib ol, deb tag‘in osmonga chiqib ketdimikan?! Balki Abu Mansur hanuz uni qo‘msar, unga talpinar, o‘shanga etishish kunini betoqat kutar?!”* [1;66]

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Sa’natkor yozuvchilar qahramonning ichki dunyosini shunchaki tasvirlamaydi balki, bu tasvir orqali ma’naviy dunyosini ochish uchun bir vosita sifatida foydalanadi. Ruhiyat tasviri asarning umumiy g‘oyasiga bo‘ysundirilgan holda qo‘shimcha g‘oyani tashishga xizmat qiladi. Ya’ni qahramon xarakterining u yoki tomonini aks ettirishga yordam beradi. Aslida xarakterni uning psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili – xarakterning yaxlitligini va to‘laqonliligini ta’minlaydi. Professor H. Umurov romanda ruhiyat tasvirining o‘rni haqida fikr yurita turib, shunday deb qayd etgan edi: “Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi bosh omildir” [3;91] .

Jahon epik adabiyoti, xususan, mumtoz mumtoz so‘z san’ati va zamonaviy adabiy oqimlarning tajriba, izlanishlari, badiiy yutuqlaridan bahramand bo‘lgan, ularni jiddiy o‘qib-o‘rgangan adib inson ruhiyatining chuqur, murakkab, qarama-qarshiliklarga to‘la manzaralari, evrilishlari tasvirini, tabiiyki, epik syujet imkoniyatlari bilan qo‘shib, dalillab berish orqali romanga xos tafakkur kengliklarini yaratishga erisha olgan.

## Foydalangan adabiyotlar.

1. Bo‘rixon L. Imom Moturidiy. – Toshkent: “Adabiyot” nashriyoti, 2022.
2. Hamraqulova X. Ruhiyat olamining estetik talqini.
3. Umurov H. Badiiy ijod mo’jizalari. -Samarqand: Zarafshon, 1992.